

Geterotsiklik birikmalar

Geterotsiklik birikmalar (getero... va yun. *kyklos* — halqa) — molekulasida halqa saqlaydigan va bu halqada ugleroddan tashqari bir yoki bir nechta boshqa elementlarning atomlari (geteroatomlar)ni tutadigan organik moddalar. Halqasida azot (N), kislorod (O), oltingugurt (S) tutadigan G.b. katta ahamiyatga ega boʻlib, ularga nuklein kislotalar, oqsillar va b. molekulari tuzilishida ishtirok etadigan alkaloidlar, vitaminlar, antibiotiklar va tabiiy pigmentlar kiradi. Xalqaro nomenklaturaga asosan muhim G.b.ning trivial nomlari saqlanib qolgan, mas, pirrol (I), furan (II), tiofen (III). Halqasida 3 tadan 10 tagacha atom tutgan monotsiklik G.b.ning nomlari ulardagi geteroatomlar (N — aza, O — oksa, S — tia, R — fosfa va h.k.)ni, aʼzolarining sonini, halqalarning toʻyingan yoki toʻyinmaganligini eʼtiborga olgan holda tuziladi Mas, aziridin (IV), tiiren (V), tiyet (VI), 1,3dioksolan (VII), pergidropirimidin (VIII). 5 va 6 aʼzoli toʻyinmagan G.b. aromatik xossaga ega boʻlganligi sababli geteroaromatik birikmalar deb ataladi. Ular (mas, tiofen, pirrol, piridin)ning kimyoviy xossalari benzol va uning hosilalariga oʻxshashdir. G.b.ga koʻpchina moddalar, mas, furan guruhiga furfurool (plastmassa i.ch.da ishlatiladigan xom ashyo), pirrol hosilasiga oʻsimliklar xlorofili va qon gemini kiradi. G.b. oʻsimlik va tirik organizm hayot faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Tibbiyotda qoʻllaniladigan doridarmonlarning deyarli yarmi G.b.dan iborat.

Adabiyotlar

- [OʻzME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

Ushbu maqola *chaladir*. Siz uni *boyitib*, (https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Geterotsiklik_birikmalar&action=edit) *Vikipediya*ga yordam berishingiz mumkin.



Bu andozani [aniqrogʻiga](#) almashtirish kerak.



Bu maqolada *boshqa til bo'limlariga ishorat* yo'q.

Siz ularni topib va ushbu maqolaga qo'shib, loyihaga yordam berishingiz mumkin.

```
"https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Geterotsiklik_birikmalar&oldid=1333585" dan olindi
```

So'nggi tahrir 8 yillar avval CoderSIBot tomonidan amalga oshirildi

Matndan CC BY-SA 3.0 litsenziyasi bo'yicha foydalanish mumkin (agar aksi ko'rsatilmagan bo'lsa).